

O'ZMA HUJJATLARI O'ZBEKISTON SSR SOG'LIQNI SAQLASH TARIXIGA OID MANBA SIFATIDA (1924-1941 YILLAR)

Choriev Sherzodjon Shokirdonovich

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston SSRning 1924-1941 yillarda sog'lioni saqlash tizmi tarixiga oid O'zbekiston milliy arxivida saqlangan muhim fondlarning manbaviy ahamiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada ushbu fondlarda saqlangan hujjatlarning tavsifi berilib, ulardagi respublikada mavjud bo'lgan troxoma, bezgak, so'zak, sil, suvdan qo'rqish (vodoboyazn), leyshmanioz, pendin yazvasi, sibir yazvasi, "Pappa-tachi" isitmasi, ichburug', mohov kabi kasalliklar haqida saqlangan manbalarning aniq manzillari ko'rsatib berilgan. Maqola respublikaning sog'lioni saqlash tarixi bo'yicha ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarga muhim yo'lko'rsatgich bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, sog'lioni saqlash, Moliya komissarligi, Statistika boshqarmasi, arxiv, fond, hujjat.

ДОКУМЕНТЫ НАЦИОНАЛНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА КАК ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР (1924-1941 ГОДЫ)

Чориев Шерзоджон Шокирдонович

доцент исторического факультета Национального университета Узбекистана

Аннотация. Данная статья посвящена раскрытию источникового значения хранящихся в Национальном архиве Узбекистана важных фондов по истории здравоохранения Узбекской ССР в 1924-1941 годах. Также в статье описаны документы, хранящиеся в этих фондах, которые содержат сведения о таких заболеваниях, как трохома, малярия, оспа, туберкулез, водобоязнь (водобоязнь), лейшманиоз, пендиновая болезнь, сибирская язва, лихорадка «Паппа-тачи», гонорея, проказа, указаны точные адреса источников. Статья служит важным путеводителем для исследователей, проводящих научные исследования по истории здравоохранения республики.

Ключевые слова: Узбекская ССР, здравоохранение, Наркомфин, Статистическое управление, архив, фонд, документ.

DOCUMENTS OF THE NATIONAL ARCHIVE OF UZBEKISTAN AS A SOURCE ON THE HISTORY OF HEALTH CARE OF THE UZBEKISTAN SSR (1924-1941)

Choriev Sherzodjon Shokirdonovich

Associate Professor of the Faculty of History of the National University of Uzbekistan

Annotation. This article is devoted to revealing the source value of important funds stored in the National Archives of Uzbekistan on the history of health care of the Uzbek SSR in 1924-1941. The article also describes documents stored in these funds, which contain information about diseases such as trachoma, malaria, smallpox, tuberculosis, hydrophobia (hydrophobia), leishmaniasis, pendine disease, anthrax, Pappa-tachi fever, gonorrhoea, leprosy, the exact addresses of the sources are indicated. The article serves as an important guide for researchers conducting scientific research on the history of healthcare in the republic.

Key words: Uzbek SSR, healthcare, Narkomfin, Statistical Department, archive, fund, document.

KIRISH. Respublikamizda sog'lioni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, soha maskanlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, tibbiy yordam ko'lami kengayib, sifati oshib bormoqda. Sog'lioni saqlash tizimining rivojlanishi xalqimiz salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sog'lioni saqlash tizimi tarixi uzoq tarixga ega hisoblanadi. Aynan, barcha sohalar kabi O'zbekiston SSR tashkil etilgandan 1941 yillargacha bo'lgan sog'lioni saqlash sohasiga oid ko'plab tarixiy ma'lumotlar bugungi kunda arxivlarda saqlanib kelmoqda. Ushbu hujjatlar soha tarixiga oid birlamchi manba hisoblanib, mavzu bo'yicha bugungi kunga qadar mukammal tarixiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston SSR sog'lioni saqlash

tizimi tarixiga oid O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroi qo'mitasini (R-86), Xalq komissarlar soveti (R-837), Sog'lijni saqlash xalq komissarligi (R-131), Moliya komissarligi xalq komisarlik (R-93)lari arxiv fondlarining manbaviy ahamiyati olib berilgan. Shuningdek, fondlarda saqlangan hujjatlarning turlari, ma'lumot berish xususiyatlari tahlil etilgan.

Tadqiqot metodlar.

Maqolada O'zbekiston Milliy arxiv hujjatlari asosida O'zbekistonda sog'lijni saqlash tizimi tarixi haqida ma'lumot beruvchi asosiy fondlarning manbaviy ahamiyati olib berilgan bo'lib, fondlarni manbaviy ahamiyati tarixiy manbashunoslikning tanqidiy tahlil usulidan foydalanildi. Shuningdek, fondlardagi statistik materiallar statistik tahlil usuli yordamida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'zbekiston SSR Sog'lijni saqlash xalq komissarligi ham dastlab tashkil etilgan komissarliklardan biri hisoblanib, sog'lijni saqlash tizimi tarixini yoritishda uning arxiv hujjatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'lijni saqlash xalq komissarligi 1924 yil 22 noyabrda O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasining bo'yrug'i bilan tashkil etilgan. Komissarlik o'zining 1924-1932 yillarga oid arxiv hujjatlarini dastlab 1940 yillarda arxivga topshirgan va ular R-131-indeksi bilan 1960 yilda O'zbekiston markaziy davlat arxivsi (hozirda O'zbekiston Milliy arxivsi) tomonidan nashr etilgan yo'lko'rsatkichga kiritilgan. Fond tarkibida sog'lijni saqlash sohasiga oid buyruqlar, ko'rsatmalar, Hay'at kengashi qarorlari, ma'ruza hisobotlar, viloyatlar bo'yicha hisobotlar, aholi soniga ko'ra, kasalxonalarda yotish o'rinnari haqidagi muhim ma'lumotlar saqlangan [1].

1962 yilda O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyat hujjatlari Markaziy arxivsi (hozirda O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyat hujjatlari Milliy arxivsi) tashkil etilgach, komissarlik arxiv hujjatlari ushbu arxiv saqloviga o'tkazilgan.

Ammo ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Milliy arxivida shunday fondlar borki, ularda O'zbekistonda sog'lijni saqlash sohasiga oid muhim hujjatlar jamlangan. Shunday fondlardan biri O'zbekiston SSR Statistika boshqarmasining R-1619-fondi hisoblanadi. Fond 11-ro'yxatining 20, 21, 22, 23 yig'majildlarida O'zbekiston SSR 1913, 1928, 1932, 1937-1942 yillarga oid hisobot hujjatlari saqlangan. Ayniqa, ro'yxatning 32, 36, 37, 38 yig'majildarda respublikaning viloyatlari bo'yicha ham alohida statistik hisobotlar saqlangan. 44-yig'majildda esa respublika sog'lijni saqlash sohasiga 1924-1954 yillarda sarflangan harajatlar bo'yicha muhim moliyaviy hujjatlar mavjud. Undan tashqari ro'yxatning 353 dan 357 gacha, 446 dan 465 gacha, 829 dan 842 gacha, 916 dan 922 gacha bo'lgan yig'majildarda ham ushbu sohaga doir muhim hisobotlar, statistik materiallar, se'zd materiallari jamlangan [2]. Ro'yxat tarkibida saqlangan yig'majildarni ma'lumot berish xususiyatlariga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Instrumentariy hujjatlari (statsitika boshqarmasiga hisobot topshirish bo'yicha buyruqlar, ko'rsatmalar, sohaga tegishli ro'yxatga olish hujjatlari, blankalar)
2. Sog'lijni saqlash sohasidagi statistik ma'lumotlar bo'yicha ma'ruza hisobotlari
3. Tibbiyat muassasalarini tizimi va kadrlar masalasiga oid hisobotlari
4. Nogironlar uylari bo'yicha hisobotlari
5. Ko'p bolali va yolg'iz onalar, nafaqa tayinlash hamda ularning soni bo'yicha hisobotlari
6. Shifokor-ekspertlar bo'yicha hisobotlari,
7. Sanatoriya va dam olish uylari hisobini yuritish hisobotlari [3].

Ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu fondda o'tkir yuqumli kasalliklar, bolalar o'limi sabablari va statistikasi bo'yicha ham alohida majmuaviy hisobotlar mavjud.

Shuningdek, O'zbekiston SSR hukumati arxiv fondlari va rahbarlarining rasmiy hisobotlari va ma'ruzalarida ham sog'lijni saqlash masalalariga oid ko'plab ma'lumotlar berib o'tilgan [4]. Ular sirasiga O'zbekiston SSR MIQ (R-86) [5] va XKS (R-837) [6] fondlarini kiritish mumkin. O'zbekiston SSR Moliya xalq komissari ham o'z hisobotlarida sog'lijni saqlash sohasida sarflangan harajatlar va amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan [7]. Masalan, O'zbekiston SSRda 1924-1926 yillarda faoliyat olib borayotgan sog'lijni saqlash muassasalar soni haqida komissarli umumlashtiruvchi jadval ma'lumotlari uchraydi [8].

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilgan hujjatlarda respublikada mavjud bo'lgan troxoma, bezgak, so'zak, sil, suvdan qo'rqish (vodoreyazn), leyshmanioz, pendin yazvasi, sibir yazvasi, "Pappa-tachi" isitmasi, ichburug', mohov kabi kasalliklar statistikasi, ularga qarshi kurashish chora- tadbirlari, haqida muhim ma'lumotlar saqlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston SSR hukumati va rahbarlarining rasmiy hisobotlari va ma’ruzalari, O‘zbekiston SSR MIQ (R-86) va XKS (R-837), Moliya xalq komissarligi (R-93), Statistika boshqarmasi (1619) fondlari respublika sog‘liqni saqlash tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hisobotlarda har yili statistik ma’lumotlar ko‘paytirilib ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, respublika sog‘liqni saqlash sohasi etarlicha mablag‘lashtirilmagan, natija besh yillik rejallarda rejalashtirilgan ishlar to‘liq amalga oshirilmagan. Aholi sonining o‘sib borishi, mahalliy tilda so‘zlashuvchi kadrlar etishmovchiligi masalalari to‘liq o‘z echimini topmagan. Ushbu sohaga oid arxiv hujjatlarining manbaviy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohaga oid arxiv manbalari asosida maxsus tarixiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Путеводител по отделу фондов октябрской революции и социалистического строительства. // под.ред. кандидата наук. Л.М.Ланда. Ташкент. Центральный государственный архив Узбекской ССР. 1960. –С.177

ЎзМА, Р-1619-фонд, 10-рўйхат таҳлили

ЎзМА, Р-1619-фонд, 10-йимажиллар рўйхати, кириш сисми, 3-варақ

Материалы к отчёту правительства Узбекской ССР. Издания ЦИК.1926. –С.90; Отчет правительства Узбекской ССР. Доклад Файзуллы Ходжаева. Издания ЦИКа Советов УзССР. 1926

ЎзМА, Р-86-фонд, Ўзбекистон ССР Марказий ижро қўмитаси

ЎзМА, Р-837-фонд, Ўзбекистон ССР Халқ комиссарлари совети

Масалан, ЎзМА, Р-93-фонд, 1-рўйхат, 3-ийс‘мажилд

ЎзМА, Р-93-фонд, 1-рўйхат, 3-ийс‘мажилд, 31-варақ